

BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qadamova Muxayyo Javoxir qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498852>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda banklarda muammoli kreditlarning ahamiyati, zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Bank, kredit, muammoli kredit, kredit portfeli, xatar.

Аннотация. В данной научная работа описаны важность, необходимость, имеющиеся возможности и их особенности проблемных кредитов в банках.

Ключевые слова. Банк, кредит, проблемный кредит, кредитный портфель, риск.

Abstract. This scientific work describes the importance, necessity, available opportunities and their specific features of problem loans in banks.

Key words. Bank, loan, problem loan, loan portfolio, risk.

Bugungi kunda banklar faoliyati tez sur'atlarda o'sib borayotgan iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biridir. Banklar faoliyatida uning rivojlanishiga kredit bilan bog'liq jihatlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, banklarda kredit orqali uning moliyaviy faoliyatiga haqiqiy baho beriladi. Kredit - ssuda kapitali yoki qarzga olingan qiymat, ya'ni qarzga berilgan kapital harakati shaklidir. Bu bir vaqtda kreditor va qarz oluvchi o'rtasida pulning shakllanib, unda pul kapitalining ssuda kapitaliga aylanishi ta'minlanadi [1]. Ushbu kreditga portfel shaklida kreditlarning qaytmasligi va risk darajasi ham ta'sir etadi. Natijada, banklarda muammoli kreditlar bilan ishlash masalasi paydo bo'ladi va bugungi kunda bu dolzarb masalaga aylangan. Kredit chakana bozorining jadal rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi. Biroq, unda tijorat banklarining murakkab shartnomaviy moliyaviy majburiyatlari ta'minlanadi.

Shuningdek, banklar risklarini nazorat etishning maqsadi barcha ajratilgan kredit mablag'larining belgilangan vaqtda o'z o'rniga qaytishi va yuqori samaradorlikka erishish bilan namoyon bo'ladi. Aslida, ushbu jihat banklarda risk kredit va unga hisoblangan foiz miqdorining qaytmasligini nazarda tutadi. Bu holatlarda mijoz va uning kreditga layoqatlilik darajasi muhim masala bo'lib hisoblanadi. Unga asosan, kredit xavfini bartaraf etish va banklarda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish uchun bank mijozlarining kreditga layoqatlilik va ta'minlanganlik darajalariga asosiy e'tibor qaratish lozim. Ushbu jihat bevosita muammoli kredit va undan foydalanish jihatlarini o'z ichiga oladi.

Bazel qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, muammoli kredit - qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini bajarish muddatlarining sezilarli darajada buzilishi, qarz oluvchining moliyaviy ahvolidan sezilarli darajada yomonlashuvi va garov sifatining sezilarli darajada pasayishi yoki yo'qotilishi bo'lgan kredit deb qaraladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimida muammoli kreditlarning hajmi va ulushi 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 3,7 foizni yoki 16,8 trln. so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 foizga pasaygan. Muammoli kreditlarning mavjudligi zamonaviy banklarning belgisi sifatida moliyaviy sektor xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Kredit bozorida muammoli kreditlar miqdoriy va sifat jihatidan kreditlash

shakllari, mexanizmlari, usullari va texnologiyalariga ta'sir etadi. Biroq, kreditlash tizimining ajralmas qismi sifatida muddati o'tgan va muammoli kreditlar turlari ajratiladi.

Fikrimizcha, muammoli kreditlar bilan banklar doimiy ravishda ishlashlari kerak. Ayniqsa, likvidligi yoki to'lov qobiliyati zaiflashgan sharoitda muammoli kreditlar bilan ishlashga ko'proq ahamiyat berish lozim. Muammoli kreditlar uchun kredit portfelida muammoli qarzlarning paydo bo'lishi bevosita bank faoliyatida salbiy oqibatlariga olib keladi. Ya'ni, banklarning foyda olish qobiliyatini pasaytirib, o'zgaruvchan muhitda uning dinamik rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan banklarning oldida kredit tavakkalchiligini kamaytirish, muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini izlash hamda mavjudlarini takomillashtirish, ularni tartibga solish kredit tashkiloti kabi vazifalar turadi. Ammo, muammoli kreditni boshqarish, ularning oldini olish va tiklash texnologiyalarini ishlab chiqishdan oldin uning sabablarini aniqlash talab etiladi.

Muammoli kreditlarni tartibga solish makro va mikro darajada amalga oshiriladi. Mikro darajada tartibga solish muammoli aktivlarni hal qilishga bag'ishlangan maxsus tuzilmaning paydo bo'lishini nazarda tutadi. Bu tijorat banki bo'linmasi va mustaqil tashkilotga yordam beradi [2].

Banklarda muammoli kreditlarning paydo bo'lishi bevosita mijozning moliyaviy inqirozining natijasidir. Bu to'satdan paydo bo'lib, asta-sekin rivojlanib boradi [3]. Ushbu masalani oldini olish uchun banklarda chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Tijorat banklaridagi muammoli kreditlarni undirish va sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi quyidagi keltirilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi [4]:

- banklarning kredit portfeli va loyihalar sifatini oshirish;
- banklarning kredit portfelida mavjud kreditlarga nisbatan stress-test amaliyotini qo'llash;
- muammoli kreditlarni tasniflar kesimida batafsil tahlil qilib, kredit portfeli sifatini saqlab qolish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish;
- tijorat banklari kredit portfellari xatlovdan o'tkazilib, murakkab ahvolga tushib qolgan mijozning moliyaviy imkoniyatlarini tiklash.

Fikrimizcha, banklar faoliyatida muammoli kreditlarning paydo bo'lishi quyidagi bir qator sabablar bilan izohlash mumkin:

- banklar tomonidan dastlab boshqa shakldagi kreditlarning berilishi;
 - qarz oluvchilar doirasida to'lov qobiliyatini baholashga turlicha yondashuvlarning mavjudligi;
 - mijozlar tomonidan kredit bitimi shartlari va kredit resurslarini olishga bo'lgan ehtiyoj darajasining noaniqligi;
 - kredit to'lovlari hajmini bilmaslik va moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi;
 - reklamani tajovuzkorligi va kredit tashkiloti tomonidan mijozni ataylab chalg'itish;
 - tezkor kreditlashning mavjudligi, mashhurliqi va sababsiz ajratilishi;
 - qarz oluvchining kredit qobiliyatini xususiyatlariga qarab baholay olmaslik;
 - qarz oluvchilarning kredit olishdagi javobgarliklarining pastligi;
- kreditlar bo'yicha yuqori foiz stavkalari va mas'uliyatsiz qarz oluvchilar tomonidan qarzlarni qaytarmaslik yukining borligi.

References:

1. Деньги, кредит, банки: учебник / под общ. ред. М.С.Марамыгина, Е.Н.Прокофьевой. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. – с. 105.
2. Холодова Е.В. «Проблемные» кредиты. Форум молодых ученых, 3(31), 2019. – с. 830. <http://forum-nauka.ru>
3. Завьялова Е.Н. Кредитное дело. 2-часть. Учебное пособие. - Костанай, 2022. – с. 8.
4. Navruzov A. Tijorat banklaridagi muammoli kreditlar holatini tahlil qilish va ularni kamaytirish masalalari. // Innovatsiya va taraqqiyot. Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. 2024-yil 1-2-son. – 35 b.